

RAQAMLI IQTISODIYOT — RIVOJLANISHNING REAL OMILIDIR**Raxmonberdiyeva Feruza Rixsiboyevna**Texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti
“Iqtisodiyot” kafedrası katta o‘qituvchisi**Bababekova Nargiza Baxtiyorovna**Toshkent amaliy fanlar universiteti
“Tarmoqlar iqtisodiyoti va buxgalteriyasi” kafedrası
katta o‘qituvchisi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari, uning hozirgi kundagi jadal rivojlanishi va O‘zbekiston Respublikasida an‘anaviy iqtisodiyotdan raqamli iqtisodiyotga o‘tish uchun qanday chora-tadbirlar ko‘rilganligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, aqlli texnologiyalar, raqamli texnologiyalar, raqamli transformatsiya.

Аннотация

В данной статье освещены этапы развития цифровой экономики, ее современное динамичное развитие и меры, принятые в Республике Узбекистан для перехода от традиционной экономики к цифровой.

Ключевые слова: цифровая экономика, информационно-коммуникационные технологии, интеллектуальные технологии, цифровые технологии, цифровая трансформация.

Annotation

In this article, the stages of development of the digital economy, its current rapid development, and what measures have been taken to transition from the traditional economy to the digital economy in the Republic of Uzbekistan are highlighted.

Keywords: digital economy, information and communication technologies, smart technologies, digital technologies, digital transformation.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan bugungi kunda iqtisodiyotning turli sektorlarini raqamlashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, elektron hujjatlar almashinuvi, elektron hukumat xizmatlari, elektron tijoratni rivojlantirishning normativ-huquqiy asoslari ishlab chiqilgan va amalda foydalanib kelinmoqda. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari platformalarida faoliyat olib boruvchi raqamli iqtisodiyot shiddat bilan rivojlanmoqda, bu esa o‘z navbatida, bunday platformalarning yanada yangi modellarini yaratishni taqozo etmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi zamonaviy raqamlashtirish jarayonining paydo bo'lishi XX asr boshlarida birinchi raqamli dasturlarning rivojlanishi bilan boshlanadi. T. Rittingning so'zlariga ko'ra, mamlakat boshqaruvida elektron hukumatning eng dastlabki ko'rinishi 1935 yilda ijtimoiy xavfsizlik qonunini qo'llab-quvvatlash maqsadida AQSh fuqarolarining mehnat daftarchalarini ro'yxatdan o'tkazishida qo'llanilgan[2]. 1990 yillarning ikkinchi yarmidan AKT sohasida tub o'zgarishlarning sodir bo'lishi raqamlashtirish jarayonining vujudga kelish sharoitini yanada kuchaytirib yubordi. Raqamlashtirishga doir ilk nazariy qarashlar, jumladan "raqamli iqtisodiyot" so'zi birinchi marta 1995 yilda D. Tapskott va N. Negropontelarning ishlarida qo'llanilgan[3].

Raqamli iqtisodiyot — bu raqamli ma'lumotlar ishlab chiqarishda asosiy omil bo'lgan iqtisodiy faoliyat bo'lib, katta hajmlarni qayta ishlash va tahlil natijalaridan foydalanish an'anaviy boshqaruv shakllari bilan solishtirganda har xil turdagi ma'lumotlar samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ushbu tushunchaning ilmiy ta'riflari ham mavjud. Shunday qilib, ba'zi olimlar raqamli (elektron) iqtisodiyotni iqtisodiyot sifatida belgilaydilar, uning o'ziga xos xususiyati ma'lumotlardan, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish orqali uning barcha ishtirokchilarining ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishdir[4]. Bu axborot, kommunikatsiya va moliyaviy texnologiyalarning rivojlanishi, shuningdek, iqtisodiy faoliyatning barcha ishtirokchilari tovarlar va xizmatlarni taqsimlash, almashish va iste'mol qilish yaratish jarayoni subyektlari va ob'ektlarining gibriddunyoosida to'liq o'zaro ta'sir qilish imkoniyatini ta'minlaydigan infratuzilmaning mavjudligi tufayli mumkin bo'ladi.

Raqamli iqtisod va elektron hukumat "Raqamli iqtisodiyot" atamasi birinchi bo'lib 1995 yilda Don Tepkott muallifligida chop etilgan "Raqamli iqtisodiyot: tarmoqli intellekt asrida va'da va xavf-xatar" (The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence) nashrida alohida tushuncha sifatida istiloh etilgan[5].

Jahon bankining ta'rifiga ko'ra, raqamli iqtisodiyot raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlar tizimidir. Ba'zi olimlar raqamli iqtisodiyotning uchta asosiy komponentini ajratib ko'rsatishadi: infratuzilma, jumladan, apparat, dasturiy ta'minot, telekommunikatsiya va boshqalar; virtual bozor sub'ektlari o'rtasidagi virtual o'zaro munosabatlar doirasida kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan biznes jarayonini qamrab oluvchi elektron biznes operatsiyalari; Internet orqali tovarlarni yetkazib berishni o'z ichiga olgan va hozirda raqamli iqtisodiyotning eng yirik segmenti bo'lgan elektron tijorat[6].

"Raqamli iqtisodiyot" atamasi ilmiy amaliyotga ispaniyalik va amerikalik sotsiolog, axborotlashgan jamiyatning yetakchi tadqiqotchisi Manuel Kastels tomonidan kiritilgan. Bu borada u o'zining "Axborot davri: iqtisod, jamiyat va madaniyat" nomli uch jildli monografiyasini chop etgan. Hozirgi vaqtga kelib, raqamli

iqtisodiyot nazariyasi to'raligicha hali shakllanmagan va ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan keng miqyosda o'rganilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda hozirgizamon "Yangi raqamli iqtisodiyoti" turli xil atamalar bilan nomlanadi. Masalan, "Postindustrial iqtisodiyot" (D. Bell), "Axborotlashgan iqtisodiyot" (O. Toffler), "Megaiqtisodiyot" (V. Kuvaldin), "Axborot va aloqaga asoslangan iqtisodiyot" (I. Niiniluto), "Texnoiqtisodiyot yoki raqamli iqtisodiyot" (B. Geyts), "Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot" (D. Tapskott)[7].

Raqamli iqtisodiyot tushunchasiga bir qator ta'riflar berilgan. Jumladan, iqtisodiyot fanlari doktori, Rossiya Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi V. Ivanov "Raqamli iqtisod — haqiqatimizni to'ldiradigan virtual muhit" — deb ta'rif bergan.

Tomsk davlat universitetining professori R. Meshcheryakovning fikricha, "raqamli iqtisod" atamasiga ikkita yondashish mavjud deb hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar asosida iqtisodiyotning va elektron tovar va xizmatlarning eksklyuziv domen tavsiflovchi raqamli iqtisodiyot: birinchi yondashuv "klassik" deb nomlanib, klassik misollar — teletibbiyot, masofaviy ta'lim, dori-darmonlarni sotish (filmlar, televizorlar, kitoblar va boshqalar). Ikkinchi yondashuv: "raqamli iqtisod" ilg'or raqamli texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy ishlab chiqarishdir.

Akademik S. G'ulomov va boshqalar muallifligidagi "Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari" nomli o'quv qo'llanmada raqamli iqtisodiyotga quyidagicha ta'rif berilgan: "raqamli iqtisodiyot (elektron) — bu axborot, jumladan, shaxsiy axborotdan foydalanish hisobiga barcha qatnashchilarning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishning o'ziga xos xususiyati bo'lgan iqtisodiyotdir. Bu axborot-kommunikatsiya va moliya texnologiyalarining rivojlanganligi, shuningdek, birgalikda gibrid dunyoda barcha iqtisodiy faoliyat subyektlari — tovarlar va xizmatlar yaratish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayoni obyektlari va subyektlarining to'laqonli o'zaro aloqa qilish imkoniyatini ta'minlaydigan infratuzilma ochiqqligi tufayli mavjud bo'lishi mumkin"[8].

Bugun jadallik bilan kechayotgan raqamlashuv jarayoni "yangi iqtisodiyot"ni vujudga keltirdi. Kam o'rganilgan va kun sayin chuqur tomir otib borayotgan bu bozor segmenti ishlab chiqaruvchilarga biznesda samarali marketing kampaniyalari uyushtirish, minimal xarajat qilib, maksimal foyda olish, tovar va xizmatlarni muvaffaqiyatli sotishning optimal usullarini taqdim etadi. Iste'molchi, xaridor va mijozlarga sifatli xizmat, qulaylik yaratiladi.

METODOLOGIYA

Hozirgi kunda "raqamli iqtisodiyot"ning milliy iqtisodiyotga ta'siri, masalan, AKT sohasidagi raqamli innovatsiyalardan foydalanish, onlayn rejimida ishlash imkoniyatini beruvchi internet, mobil va sensorli tarmoqlardan foydalanish, elektron hujjat aylanishi va axborotning hisobga olish hamda saqlashda zamonaviy elektron muloqot tizimidan foydalanish, yangi biznes modellarni yaratish, yangi bozor va iste'molchilarni yaratish va shu kabi boshqa maqsadlarga ko'ra tadqiq qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyotni turlicha ta'rif etish mumkin. Tahlil qilish natijasida, har bir ta'rif uning faqatgina ma'lum bir xususiyatiga qaratilganini anglash mumkin. Ular orasida eng muhimlarini hisobga olib, raqamli iqtisodiyotga quyidagicha ta'rif berish mumkin: raqamli iqtisodiyot — bu ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi bo'lib, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini va samaradorligini oshirishga qaratilgan.

“Raqamli O'zbekiston-2030” konsepsiyasiga ko'ra, raqamli iqtisodiyotga o'tish YaIM ning salkam 40% ga o'sishini va korrupsiya darajasining sezilarli kamayishini ta'minlashga qodir. Shuningdek, ushbu konsepsiyaga ko'ra, iqtisodiyotning real sektorida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida quyidagilar ustuvor yo'nalish etib belgilangan:

- sanoat korxonalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish dasturlarini ushbu korxonalarni texnologik qayta jihozlash dasturlari bilan uyg'unlashtirish;
- korxona ta'minotining barcha bosqichlarini avtomatlashtirish va boshqarishni ta'minlash, shuningdek, bu orqali logistika va xarid xarajatlarini qisqartirish;
- zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxini, ishlab chiqarishdagi to'xtalishlarni kamaytirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish;
- innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo'yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;
- ish o'rinlarini bosqichma-bosqich avtomatlashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini robotlashtirish, shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish;
- savdo hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash maqsadida buyurtmachilar (mijozlar) bilan o'zaro munosabat mexanizmlarini takomillashtirish;
- boshqaruv ma'lumotlarini qabul qilishni qo'llab-quvvatlash tizimini, jumladan, real vaqt rejimida biznes-tahlil tizimini joriy qilish orqali takomillashtirish;
- joriy yilda, korxona resurslarini boshqarish tizimini (ERP) joriy qilgan yirik xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning ulushini 90,7 foizga yetkazish;
- sanoat korxonalarida joriy etilayotgan ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish (ERP, MES, SCADA va boshqalar), robotlashtirish, “Buyumlar esa interneti”, “sun'iy intellekt” kabi texnologiyalarning dasturiy mahsulot qismini 2027 yilga kelib, apparat qismini 2030 yilga kelib davlat-xususiy sheriklik asosida mahalliyashtirish;
- Kommunal xizmatlar bo'yicha hisob-kitoblarni boshqarish uchun smart texnologiyalarni joriy qilish, intellektual servislarni joriy qilish va kommunal xizmatlarni tartibga solish uchun “aqlli uy” tajribasini joriy etish;
- har qanday yo'lovchi transportida chipta sotib olish uchun yagona platformani yaratish;

- korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarni Internet jahon axborot tarmogʻi orqali sotish bozorlarini kengaytirish;
- transport tizimini kompleks rivojlantirish uchun dasturiy modellashtirish tizimlaridan foydalanish mexanizmlarini amalga oshirish;
- sugʻurta tizimini raqamlashtirish uchun davlat-xususiy sheriklik asosida raqamli sugʻurtani amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;
- logistika tizimini takomillashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish maqsadida raqamli logistika tizimiga bosqichma-bosqich oʻtish;
- iqtisodiyotning real sektorlarida robotlashtirilgan sanoatni rivojlantirish va amalga oshirish;
- yirik sanoat korxonalari uchun robototexnika va muhandislik ixtisosliklarini tashkil etish;
- ishlab chiqarish korxonalarida additiv (qavatma-qavat qurish va sintez qilish texnologiyasi, 3D oʻlchamda bosib chiqarish) texnologiyalarini keng joriy etish.

Bundan tashqari, masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, pochta va logistika xizmatlari sifatini oshirish, tijorat banklari tomonidan mijozlarga masofaviy bank xizmatlari (internet banking, bank-mijoz, sms-banking va boshqalar), shu jumladan, mobil ilovalar orqali xizmat koʻrsatish koʻlamini va sifatini oshirish, elektron tijorat va raqamli toʻlov platformalarini rivojlantirish kabi tadbirlar mamlakatimizda elektron tijorat va elektron toʻlovlar tizimini rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishi hisoblanadi.

Barchamizga sir emas-ki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining paydo boʻlishi va tarqalishi global iqtisodiyotga shu darajada taʼsir koʻrsatdiki, yangi bir hodisa — raqamli iqtisodiyot paydo boʻldi desak, mubolagʻa boʻlmaydi. Aqlli texnologiyalar taʼsiri ostida odamlarning turmush tarzi oʻzgara boshladi, foydalanuvchilar oʻrtasidagi aloqalar oʻzgardi — turli jugʻrofiy mintaqalar, faoliyat sohalari va boshqa sohalardagi insonlar oʻrtasida aloqa oʻrnatish imkoniyati paydo boʻldi. Bu raqamli iqtisodiyotning asosi boʻlgan axborot aloqalarining jadal oʻsishidan dalolatdir. Agar, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini shartli ravishda mustaqillik bilan barobar boshlangan deb faraz qilsak, u holda uning quyidagi bosqichlari mavjudligini taʼkidlab oʻtish oʻrinlidir: 1991-2005 yillar: Raqamli iqtisodiyotning vujudga kelish davri boʻlib, bu davr toʻrt qismdan iborat ekanligini koʻrishimiz mumkin:

- dotkomlar davri;
- yangi elektron xizmatlar koʻrsatish bozorlari;
- elektron biznesning yuzaga kelishi;
- elektron tijorat.

2006-2010 yillar: Raqamli iqtisodiyotning oʻsish davri — bu davrda elektron xizmat koʻrsatish boshlandi va yangi xildagi elektron mahsulotlar yaratildi.

2011-2015 yillar: Raqamli texnologiyalarning yetilish davri boʻlib, unda onlayn imkoniyatlar yuzaga keldi va raqamli texnologiyalar anʼanaviy biznesga ham asta-sekinlik bilan kirib kela boshladi.

2016-2020 yillar: Raqamli texnologiyalarning kutilmagan sohalarga kirib kelishi va an'anaviy biznes modellarining transformatsiyasi hamda bir qancha yangi elektron biznes modellarining paydo bo'lishi.

2021-2030 yillar: Raqamli texnologiyalarning tizimli transformatsiyasini amalga oshirish, ya'ni, raqamlashtirishni tizimli yondashuv asosida amalga oshirib, ularni kriptotizimlarga suyanan holda sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish. Raqamli iqtisodiyotda raqamli ko'rinishdagi ma'lumotlar barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi ishlab chiqarishning asosiy elementi hisoblanadi. Bu mamlakatning global miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirib, fuqarolarning hayot sifatini yanada oshiradi, yangi ish joylarini yaratadi, iqtisodiy o'sishga imkon yaratadi va milliy mustaqillikni ta'minlab beradi.

Butun dunyo rivojlanishida zamonaviy tendensiyaga ega bo'lgan raqamlashtirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini har tomonlama tadqiq etish, "raqamlashtirish" va "raqamli iqtisodiyot" tushunchalari o'rtasidagi munosabatlarni, muammolarni, milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishiga ta'sir qiluvchi salbiy va ijobiy oqibatlarni chuqur o'rganish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Bugungi kunda, rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni raqamlashtirish bo'yicha turli dasturlar ishlab chiqilmoqda (Buyuk Britaniyada "Raqamli iqtisodiyot to'g'risida"gi qonun, Germaniyada "Industrie 4.0" dasturi, Fransiyada "Plan France Numerique" dasturi, Yevropa Ittifoqida "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish dasturi" va boshqalar) va ular iqtisodiyotga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Dunyo tajribasidan kelib chiqib, mamlakatimizda ham iqtisodiyotni raqamlashtirish borasida o'ziga xos dasturlar ishlab chiqilgan va ular izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda Raqamli iqtisodiyot dasturini hayotga izchil tatbiq qilish quyidagilarga erishishga imkon beradi:

- yangi texnologiyalar yaratishga xalaqit berayotgan huquqiy to'siqlarni yangi normativ-huquqiy baza yaratish yordamida to'liq bartaraf qiladi;
- raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini yaratish va rivojlantirish, shu jumladan, tarmoqlar, ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari, texnik va dasturiy ta'minotning zamon talablariga mos ravishda rivojlanishiga imkon beradi;
- ta'lim tizimining har tomonlama rivojlanishini va yangilanishini ta'minlaydi;
- mamlakatdagi turli-tuman kompaniyalarning, firmalarning, davlat korxonalarining hamda biznesning rivojlanishiga puxta asos yaratadi;
- raqamli iqtisodiyot sohasida faoliyat ko'rsatadigan tashkilotlar hosil bo'lishiga olib keladi va boshqalar.

Ushbu raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish dasturi quyidagi maqsadlarini amalga oshirish uchun xizmat qilishi kerak:

- mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning ekotizimini yaratish;
- yurtimizda raqamli iqtisodiyot tizimining institutlari va infratuzilmasini yaratish;
- jamiyatning barcha tarmoqlarini qamrab oluvchi informatsion jamiyat tashkil qilish uchun kerakli bo'lgan barcha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- xalqaro miqyosda va dunyo bozorlariga respublikaning raqobatbardoshligini oshirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz raqamli iqtisodiyotining asosiy ko'rsatkichlariga quyidagilarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin:

- a) raqamli mahsulotlar va elektron xizmatlarning paydo bo'lishi;
- b) turli tashkilot va korxonalarining tabiatini o'zgartirishga erishish va shuning asosida ularning faoliyatini ham raqamlashtirish;
- c) raqamli iqtisodiyotning asosi sifatida xizmat qiladigan raqamli platformalar yaratish;
- d) raqobat kurashining tabiatini raqamli iqtisodiyotga moslagan holda o'zgartirish;
- e) iste'molchilarning tabiatini ham raqamli iqtisodiyot jarayonlariga moslashtirish;
- j) ishlab chiqarishning yangi progressiv modellari va mexanizmlarining paydo bo'lishi;
- z) yangi turdagi biznes modellarning hosil bo'lishi va rivojlanishi.

So'ngi yillarda, mamlakatimiz iqtisodiyotining raqamli sektorini rivojlantirish borasida davlat tomonidan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, elektron hujjatlar almashinuvi, elektron hukumat xizmatlari, elektron tijoratni rivojlantirishning normativ-huquqiy asoslari ishlab chiqilgan va amalda foydalanilmoqda. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari platformalarida faoliyat yurituvchi raqamli iqtisodiyot shiddat bilan rivojlanmoqda, bu esa o'z navbatida, bunday platformalarning yanada yangi modellarini yaratishni taqozo etmoqda.

Prezidentimiz muhtaram Shavkat Miromonovich Mirziyoev tomonidan imzolangan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish va uni qo'llab-quvvatlash mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyot rejasidan muhim o'rin egallaganligi tufayli iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar belgilandi. Mazkur vazifalar ijrosi o'laroq, mamlakatimizda yangi elektron hujjat aylanishi tizimlari joriy etilmoqda, elektron to'lovlar rivojlantirilmoqda, elektron tijorat sohasidagi normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda, elektron infratuzilma va tijorat shakllantirilmoqda, iqtisodiyotning barcha jabhalarida raqamli transformatsiyaga o'tilishi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Raqamli transformatsiya realizatsiyasi bo'yicha so'ngi yillarda amalga oshirilgan ishlar qatorida aholi va tadbirkorlik subyektlarining davlat organlari bilan kontaktsiz aloqa shakllarini yana-da rivojlantirish maqsadida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining yangi versiyasi, Bosh vazirning tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish virtual qabulxonasi "business.gov.uz" portali ishga tushirildi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha eng istiqbolli va strategik muhim loyihalarni, shuningdek blokcheyn texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish sohasida chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan "Raqamli ishonch" jamg'armasi tashkil etildi.

Raqamli texnologiyalarning hayotning barcha jabhalariga jadal tatbiq etilishi iqtisodiy o'sish va taraqqiyotning yangi imkoniyatlari paydo bo'lishiga, ijtimoiy jarayonlarning takomillashishiga va aholi turmush sifatining yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Biroq, bu bilan birga jamiyat taraqqiyotiga yangi tahdidlar ham paydo bo'lmoqda. Iqtisodiy rivojlanish paradigmasining transformatsiyasi uzoq muddatli jarayon bo'lib, ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishini, yangi qadriyatlarning paydo bo'lishini va mutlaqo boshqa bilimlarning shakllanishini taqozo etadi. Haqiqatdan ham, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, raqamlashtirishsiz natija ham, rivojlanish ham bo'lmaydi.

Raqamli iqtisodiyot texnologik va biznes jarayonlari, ishlab chiqarish, logistika va tayyor mahsulotlarning savdosini raqamlashtirish uchun mamlakatimizda zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan "IT-park"lar tashkil etildi. Kripto-aktiv va blokcheyn texnologiyalar sohasidagi kompaniyalarning erkin faoliyati yo'lga qo'yildi. Mamlakatimizda zamonaviy dasturlash texnologiyalarini o'zlashtirgan kadrlarni tayyorlash maqsadida "Bir million dasturchi" loyihasi ishlab chiqilib, loyiha doirasidagi mashg'ulotlarni tashkil etish uchun uzbekcoders.uz o'quv portali ishga tushirildi.

Mamlakatimizda ilm-ma'rifatga alohida urg'u berilishi va bu orqali raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalasi kun tartibiga qo'yilishi bugungi kun zaruratidir. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlik"dir. 2020-yil mamlakatimizda "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilindi va bu boradagi ishlar endilikda yangi bosqichga ko'tarilib, Prezident Farmoni bilan mamlakatning "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda avvalo telekommunikatsiya va elektron infratuzilmani takomillashtirish alohida ahamiyatga ega. Albatta, aholini internet tarmog'idan foydalanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, raqamli iqtisodiyot, shu jumladan, elektron hukumat tizimi ham shuncha samarali faoliyat yuritadi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan shuni xulosa qilish mumkin-ki, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish eng avvalo, iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy jihatdan mamlakatni taraqqiy etishiga, bozor iqtisodiyoti qonunlari to'liq amal qiladigan demokratik davlat qurishga, mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga, tadbirkorlik faoliyatiga keng qulaylik yaratish va uni rivojlantirishga, yangi innovatsion g'oyalar realizatsiyasiga hamda mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga munosib xizmat qiladi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Lo'nda qilib aytganda, iqtisodiyotni to'la-to'kis raqamlashtirish – rivojlanishning real omili sifatida xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyot — bu axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va ularning iqtisodiy sohalarda keng qo'llanilishi natijasida vujudga kelgan yangi iqtisodiy tizimdir. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot, innovatsion texnologiyalar va

aqlli tizimlar yordamida ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish, moliyaviy operatsiyalar va boshqaruv tizimlarini yanada samarali qilish imkonini beradi. Raqamli iqtisodiyotning asosiy afzalliklari orasida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, resurslardan optimal foydalanish, operatsion xarajatlarni qisqartirish va bozorlarga kirishni tezlashtirish mavjud. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, mamlakatlarning raqobatbardoshligini oshirishi va global iqtisodiyotda ulushini kengaytirishiga yordam beradi.

O'zbekiston uchun raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish, yangi biznes modellarini yaratish va mavjud iqtisodiy tizimlarni raqamlashtirishni taqozo etadi. Bu nafaqat iqtisodiyotni o'zgartiradi, balki davlat xizmatlari, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda ham islohotlarni amalga oshirish imkonini beradi. Boshqacha aytganda, raqamli iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy o'sish, balki ijtimoiy rivojlanishning muhim omiliga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev // Tarmoq va hududlarda raqamli iqtisodiyot hamda elektron hukumatni joriy qilish masalalari bo'yicha videoselektoridagi nutqidan // 22.09.2023.

2. T. Ritter, C. Pedersen "Digitization capability and the digitalization of business models in business-to-business firms: Past, present, and future" — *Industrial Marketing Management*, 86 (2020).

3. Tapskott Don. 1997. *The Digital Economy: Promise and Peril In The Age of Networked Intelligence*. <https://doi.org/10.5465/ame.1996.19198671>

4. Ayupov R.H., *Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratda yangi texnologiyalar*. O'quv qo'llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2020.

5. Porsaev G'.M., Safarov B.Sh., Usmanova D.Q. *Raqamli iqtisodiyot asoslari*. Darslik - T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2020.

6. Ayupov R.H., Boltaboeva G.R. *Raqamli iqtisodiyot asoslari*. Darslik. T.: TM1, 2020.

7. Brynjolfsson E and Kahin, B, eds. (2002). *Understanding the Digital Economy*. Massachusetts Institute of Technology, Cambridge, MA.

8. Бойко, И.П. *Экономика предприятия в цифровую эпоху* / И.П. Бойко, М.А. Евневич, А.В. Колышкин // Российское предпринимательство. Том 18, - 2017. — №7. — С. 1127-1130.